
HAYOTIMIZDAGI XORIJIY TILLARING O'RNI

Abduhamidova Mohinabonu Ahmadjon Qizi¹

*¹ Farg'ona viloyati Rishton tumanida 13-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 10- "B" sinf o'quvchisi*

MAQOLA MA'LUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 01.11.2024

Revised: 02.11.2024

Accepted: 03.11.2024

ANNOTATSIYA:

Maqolada asosan o'zbek tilining beباھو boyligi haqida, O'zbek tilining o'ziga xos jozibasi, uning millat taraqqiyoti nafaqat ozbek tili chet tillari hayotimizda juda ham muhim ro'l o'ynayotgani haqda fikr yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR:

*Til, millat, shoir,
e'tibor, inglis til, o'zbek
tili, qadriyat, beباھо
boylik.*

KIRISH. Hozirgi vaqtida shuni bilasizlarki, chet tillari hayotimizda juda ham muhim ro'l o'ynab kelmoqda. Sababi dunyoda juda ham ko'p davlatlar mavjud bo'lib, ularning aholisi so'zlashadigan tillar ham ko'p . Til har bir millatning o'z boyligi, qadriyati va beباھо mulki hisoblanadi. Har bir xalq , har bir elat o'zi xurmat va ehtirom qilgam tilga ega .

Barchamiz bir birimiz bilan muloqot qilish imkonini berish uchun xalqaro tillar xizmat qiladi.Chet tillarini o'rganish bizni juda ham ko'p ulkan yutuqlar bilan ta'minlaydi. Birinchi navbatda, til o'rganish boshqa davlatning madaniyatini o'rganish uchun eng zo'r yo'l deb o'ylayman. Sababi qachonki biz chet tilini o'rgansak biz ularning analarini, urf- odatlari va hattoki ularning ta'lim-tarbiyasidan ham habardor bo'la olamiz.

Boshqa mamlakatning katta, katta kutibxonalarini, universitetlarini o'ziga jalb qiladigan atmosferasini o'rganish hamma uchun ham roxatlanarli deb hisoblayman.Va albatta bu bizning dunyoqarashimizni o'stirish uchun ham juda katta yordamini ko'rsatadi. Mening fikrimcha, boshqa mamlakatning madaniyatini o'rganish ham bizga zavq bag'ishlaydi va o'qish uchun bo'lgan ishtiyoqimizni ko'taradi. Eng asosiysi, biz boshqa tillardan habardor bo'lsak va chet tillarida bemalol qiyinchiliklarsiz gapira olsak, boshqa davlatlarga sahoyat qilish imkoniyati ham shuncha kengayadi. Misol uchun: Nurzoda ismli qiz 7 ta tilni bilgani

tufayli , u hozirda 35 ta mamlakatni sayohat qilishga muvofiq bo'ldi. Yana, ko'plab ariginal kitoblar va maqolalar chet tillarida chop etiladi va ularni his qilib o'qish uchun esa ularni ariginal variantda o'qishimiz kerak qaysiki bizdan chet tilini bilishni talab qiladigan. Va bular albatta bizning biznesimizni, shaxsiy hayotimizni , kareyeramizni rivojlantiradi.

Chet tilini o'rganishning yana bir muhim tarafi shundaki , ular bizga turli xil xalqaro ishlarda ham ishlash imkoniyatini beradi. O'ylaymanki bu bizning muhim qarorlarni qabul qilish qobiliyatimizni ham yuqori darajalarga ko'taradi. Hozirda men 4 ta chet tillarida erkin so'zlasha olganim tufayli, mening shaxsiy o'quv markazimni boshqarishga, 100 lab o'quvchilarda ishonch bilan dars o'ta olishga muvofiq bo'ldim.

Albatta, bu yutuqlarga erishish uchun atrofimizdag'i insonlar juda ham katta rol óynaydi deb hisoblayman. Sababi ancha yillar ilgari bizning vatanimizda ayniqsa qizlar uchun oliygochlarga kirish uchun qulay imkoniyatlar va sharoitlar yaratib berilmagan va universitetlarda o'qish ular uchun shunchaki orzu bólub qolgan holos. Va bunday be e'tibor hozirda mening hududimda ham mavuj. Lekin men uchun bu hayotda erishgan barcha yutuqlarim uchun dadajonim va oyijonim sababchi deb óylayman. Sababi ular meni óqishim uchun telefon, kampyuter, printer va menga kerak bólgan barcha kitoblar bilan ta'minlashdi. Eng asosiysi ular menga doim ishonch ko'zi bilan qarashdi. Men oilada eng katta farzandman va mendan keyin 3 ta singlim bor . Men katta farzand bólganligim uchun menda doimo ma'suliyat bólgan. Har kuni maktabga borish, a'lo baxolarga óqish, maktabdan sóng uylarni tozalash , singillarim vazifalarini qildirish, ular doimo nazorat qilish har kuni mening zimmamda bólgan. "Shuncha ishlardan bóshab qanday bunday darajaga erishdingiz ? "- bu eng kóp beriladigan savol. Men vaqt ni qanday taqsimlashni buvajonimdan órganman. Ular har doim menga bir vaqt ni ózida ikkita ish qilishimga yordam berishgan. Men ulardan juda ham kóp hayotiy ógitlarni órgangandim va hozirda hayotimda ularni qóllaganim tufayli eng zo'r natijalarni qólga kirityapman . Aslida qiz bola qanday tarbiyali qiz bólishi va ilm yólida qanday yurishi kerakligini doim buvajonim yodimda tutishgan. Bobojonim va buvajonim men ilm yólida qilishim kerak bólgan barcha yóllarga ruxsat berishgan. Misol uchun :ular men uchun shaxsiy zamонавији jihozlar bilan jihozlangan markaz ochishimga óz hissalarini ayashmadı. Ular har doim men qilgan qarorlarga xurmat bilan qarashib meni doimo qóllab quvvatlashdi. Dadajonim va ayajonim ham davlat oliygochlarda tahsil olishgan va hozirda davlat korxonalarida ishlab kelishmoqda. Men óylaymanki ularning bu yutuqlari meni óqishim uchun ham óz ta'sirini kórsatgan. Menga eng kóp kuch bergen narsa bu dadajonimning har kuni meni maktabga tashlab qóyishlarida " Qizim men senga ishonaman" - deb ishonch bilab aytishi edi. Bu

gaplar menga eng katta kuch, energiya va mativatsiya berar edi. Har doim qulog'imda dadajonimning bu gapalari jaranglaydi. Men óqishdan charchagan paytlarim ham bólgan lekin meni atrofimdagi bu yaqinlarimning menga bólgan ishonchi doimo meni tetiklashtirgan . Eng asosiysi men bemalol shuni aytay olamanki menga doimo "*DADAJONIMNING ISHONCHI KUCH BERGAN*".

Bundan tashqari , men hayotda ustoz topishda ham anchagina qiyinchililarga duch kelganman. Mening haqiqiy ustozim XUSNIYABONU AXRORJONAVA . Men ularni birinchi marotaba darslarida ótirganindayyoq ularga bo'lgan mehrim ózgachaligini his qilganman. Men ularda 2 yil davomida tahsil oldim . Ustozim ham yosh bólishiga qaramay juda ham kóp yutuqlarga erishgan . Men ulardan qanday qilib orzu va maqsad qóyishni órgandim. Ularni uchratmasidan oldin men hatto orzu qilishni ham bilmasdim shunchaki atrofimdagi insonlarga havas qilishni bilar edim holos. Lekin shu 2 yildan beri men óz qirralarimni ularni yordami orqali kórsatib kelmoqdaman. Ular menga qalbimga quloq solishni, aslida atrofimdagi insonlar erishgan ulkan yutuqlarga erishish uchun menda ham bilim, imkoniyatlar borligini kórsatib berishdi. Ishonasizmi, ular menga ustozlik qilishni boshlashgan vaqtadan beri hayotim ijobjiy tomonga ózgargardi. Ularga o'z minnatdorchiligidagi bildiraman.